

**O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR"
ASARIDA "ONA" OBRAZINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Fayzullayeva Munavvar Bahodirovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

munavvarfayzullayeva41@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola sevimli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobi asosida yozilgan. Bu kitobning boshlanishida adib asarini qirq yil davomida yozganligini haqida aytib o'tadi. Men buni umrim davomida shoshmasdan yozganman va siz ham shoshmasdan o'qing degan jumlar aks ettirilgan. Bu asar yozuvchining umri davomida ko'rgan kechirganlari asosida chiqargan xulosalari hisoblanadi va shuningdek bunday xulosalarni har birini alohida kitob qilib chiqarsa bo'ladi.

Kalit so'zlar: "Ona", tarnov, laylak, hikoya, mehribon ona obrazi, tushuncha.

O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobidan badiiyat bilan yakunlangan so'zlarning yoqimli harakatini maroq bilan kuzatish mumkin. Undagi qaydlarda bayon qilingan fikr-tuyg'ularni har kim ham ayta olmaydi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, undagi har bir baydni alohida asar sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ulardagi samimiyat, badiiy so'zga oshuftalik va shaydolik, mulohaza va mushohadalar har bir satrida namoyon bo'lib turadi. Ana shu samimiyat insonning qalbini zabt etadi, uni adibning badiiy tafakkur olamiga olib kiradi, shuningdek yozuvchi tomonidan yaratilgan Ona obrazi va fazilatlarini mohirona tasvirlangan.

Ona! Hayot saboqlarini beruvchi, jonkuyar mehribon inson. Katta-yu kichikka doimo birday yordam bera oladigan, hamisha to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan murabbiy. Oilada hammani ko'ngliga yo'l topadigan mehribon ona.

Naqadar buyuk zot faqat uning farzand uchun kechalari bedor o'tkazgan, farzand kamoli uchun yelib yugurgan, oilasini tinch yashashi uchun har ishga tayyor, atrofdagilarga beminnat mehr bergan zot. O'zi ona bo'lsada, bir daqiqa ham farzand ekanligini unutmay ota-ona xizmatiga shay turgan inson balki uning buyukligi ham shundadir balki shuning uchun ham barchamiz uning oldida ta'zimdadirmiz.

Onalar farzandlari uchun eng yaqin do'st bo'lishadi. Albatta, bunday oqibatni boshqa hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Hatto otalar ham bunday aloqa o'rnatmaydi. Bu rishta bolalikdan boshlanadi. Shunisi e'tiborliki, ona bolasini gap-so'zsiz tushunishi ham mumkin. Onalar umuman oilaning hissiy tayanchidir. Oila a'zolari, albatta, onalarga o'z his-tuyg'ularini tashvishlanmasdan aytib berishlari mumkin. Odam deyarli har qanday sirini onasi bilan bo'lishishi mumkin. Buning sababi shundaki, onalar o'z oilasiga katta ishonch bildirishadi. Bundan tashqari onalarimiz juda kechirimli tabiyatga egadir. Shu sababli har qanday hatolikka yo'l qo'yilsa ham onalar bilam qo'rqmasdan bo'lishish mumkin chunki ular bizdan maslahatini va yordamini ayashmaydi.

Misol tariqasida, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan "Tarnov" parchasida muallif mehribon va kuyunchak ona siymosini tasvirlaydi u orqali onaning bolasini qayg'urishi va har qanday holatda ham bolasini o'ylashi, o'zi yomg'irda ivib ketsayam bolasi uchun issiq kiyimlar olib chiqishi, farzandiga bo'lgan mehr-muhabbatini va shuningdek o'g'li ham o'zini

bolasini shunday qayg'urishini kuzatamiz. Hamda shu yerda xuddi "Yer dumaloq" degan maqolni aytishimiz mumkin.

"Erta bahor edi. Hordiq kuni edi. Kech turdim. Hovliga tushsam, havoning avzoyi buzuq. Yuvunib chiqib qaragam, tunuka tom peshidagi tarnov bir tomonga qiyshayib yotibdi. Qishda yoqqan qor zalvoridan qiyshayib qolgan shekilli... Qattiqroq shamol bo'lsa, tushib ketadigan...

Yo'lakda yotgan narvonni ko'tarib kelib tomga tiraguncha tinkam quridi, zax tortib, zildek bo'lib ketibdi.

Narvon zinasiga oyoq qo'yishim bilan ayvondan onam tushib keldi.

-Nima qilmoqchisan?- dedi ko'zimga termulib .

-Hozir,- dedim beparvo qo'l siltab.-Tarnov qiyshayib qopti.

-Shoshma, bolam, avval choyingni ichib ol...

-Hozir tushaman.
Shunday dedim-u narvonga tirmashdim.Tomga chiqishim bilan pastdan onamning xavotirli xitobi eshitildi:

-Ehtiyot bo'l, tom labiga borma!

-Uyga kirsangiz-chi!-dedim og'rinib .

Tunuka tomni taraqturuq bosib, qiyshaygan tarnov oldiga keldim. Uvallo urinaman , tarnov la'nati o'nglansa qani! Zanglab ketganmi bo'yog'i yopishib qolganmi...

Aksiga olib, yomg'ir shivilay boshladi.Avvaliga tomchilab turdi-da ,keyin shiddat bilan yog'ib ketdi. Tom labida o'tirgancha, tarnovini qo'shqo'llab surishga urindim. Qilt etmaydi.

Pastdan onamning ovozi keldi:

-Menga qara, bolam.

Narvon oldiga qaytib keldim.

-Nima deysiz?

-Jon bolam, mana buni kiyib olgin...

Qaragam onam bir qo'li bilan narvonni changallagancha, ikkinchin qo'lida to'n ushlab turibdi.Yupqa ro'moli,nimchasi ho'l bo'lib ketgan...

Xunobim oshdi.

-Hozir tushaman,dedim-ku!Men yosh bolamanmi?

-Shamollab qolasan!

-Obbo! Siz uyga kiravering! Hozir tushaman.

Shunday deb, tag'in tarnov oldiga qaytdim. Jahl bilan tarnovni mushtlay boshladim. Bir mahal pastdan yana ovoz keldi:

-Ada! Adajon!

-Ha!- dedim battar xunob bo'lib.

-Varragim yirtildi!

Qarasam, yeti yoshli o'g'lim hovli o'rtasida turibdi. Oyog'i ostida yirtilib, qamishlari qovurg'adek turtib chiqqan varrak loyga qo'rashib yotibdi. O'zi ko'ylakchan. Boshyalang.

Yomg'ir ostida diydirab turibdi

-Uyga kir, Farruh!- dedim baqirib.-Uyga kir, shamollab qolasan!

Quloq solsa qani! Goh varragiga, goh menga qaraydi. Kapalagim uchib ketdi! Tomda sirg'alib sirg'alib narvon tomon yugurdim. Uch- to'rt pillapoya tushib qaragam, onam hamon narvon oyog'ini changallab turibdi. Ro'mol jiqqa ho'l bo'lib, sochlariga yopishib qolgan...

Bir qo'li Narvon oyog'ida. Bir qo'lida to'n...

Yana misol tariqasida yana bu asarda "Laylak" parchasini ko'rsatishimiz mumkin. Bunda adib ona siymosini juda chiroyli tasvirlaydi, u orqali barcha onalarni va o'zbek ayollarini bolasiga bo'lgan mehr muhabbati, umrini unga bag'ishlashi, bolasi nimaiki so'rasa aytishi, har qanday savollariga erinmasdan javob berishini kuzatishimiz mumkin. Ammo, afuski, ba'zi farzandlar ulg'ayganidan so'ng esa qari onasiga yaxshi muomalada bo'lishmaydi.

Yana shuni aytish kerakki, ushbu hikoyani o'qib onaga achinasiz, onangizni o'ylab qolasiz. "Laylak" hikoyasida ona yoshligida bola necha marta so'rasa ham javob berishi, onalarimizning sabr toqatini mehribonligini ko'rsatib turadi. Lekin bolasini onasiga qilgan munosabatini ko'rib u bolaga nisbatan nafratimiz oshadi. Lekin qaytar dunyo ekanligini va uning ham farzandlari borligini hikoya so'ngida keltirib o'tilgan.

Xulosa qilib aytganda, bu asarda umr davomida yozilgan va sizning ham umringiz davomida kerakli bo'ladigan ibratli so'zlar bor. Ba'zilaridan xulosa chiqarasiz yana ba'zilarini o'qib yig'laysiz. Aksariyat hikoyalarini o'qib esa o'ylanasiz yana birlarini takror va takror o'qiyverib, yod bo'lib ketganligini bilmay qolasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobi
2. M.B.Fayzullayeva "O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA "ONA" VA "AYOL" OBRAZLARI TALQINI" 2023. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9NS0PMkAAAAJ&citation_for_view=9NS0PMkAAAAJ:5nxA0vEk-isC
3. Izohli lug'at (2019).
4. M.B.Fayzullayeva "BADIY ADABIYOTDA ONA OBRAZINING YARATILISH TARIXI" 2023. <https://www.intereuroconf.com/index.php/MSRTIAI/article/download/1771/1457>